



## CHET TLINI O'QITISHDA PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGI ASOSIDA FAOLIYAT OLIB BORISHI

Qdirbayeva Xurliman Mangitbayevna<sup>1</sup>, Murataliyeva Nafosat Zoir qizi<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti kata o'qituvchisi

<sup>2</sup>Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Turizm fakulteti xorijiy til o'qitish metodikasi mutaxassisligi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5835466>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01 - yanvar 2022  
Ma'qullandi: 05 - yanvar 2022  
Chop etildi: 10 - yanvar 2022

### KALIT SO'ZLAR

Kasbiy kompetentlik, kompetentsiya, professionallik, o'qitish jarayoni, dars.

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada chet tilini o'qitishda pedagogning kasbiy kompetentligining ahamiyati haqida nazariy bayon etilgan. Shuningdek, kompetentlik tushunchasiga keng izoh berib o'tilgan. Chet tilini o'qitish bo'yicha mahalliy birqancha olimlar qarashlari tahlil qilingan. Ushbu mavzuni yanada chuqur o'rganish uchun masalaning kasbiy kompetentlik tomoniga kengroq to'xtalib o'tildi.

Bugungi kunda ta'lim sohasini professional tarzda o'rganish va o'rgatish dolzarb masala hisoblanadi. Jumladan, ingliz tilini o'rgatish bo'yicha birqancha ilmiy-amaliy metodik ishlar olib borilmoqda. Sababi xorijiy tillarni o'quvchilarga o'rgatishning o'ziga xos murakkab jihatlari mavjud. Respublikamiz ta'lim tizimini isloh qilishda xorijiy tajribalarga asoslangan xalqaro standartlarga mos keluvchi o'quv dasturlari bilan muvofiqlashtirish oliy pedagogik ta'lim tizimini takomillashtirishga asos soldi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizda " ...ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro

standartlarini joriy qilish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish...", kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart- sharoitlarni yaratish katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ingliz tilini o'qitish metodikasi va metodologiyasi bilan shug'ullangan birqancha mahalliy olimlarning J.Jalilov, O'. Xoshimov, I.Y.Yoqubov mehnatlari bilan tanishmiz.[2;b-27] Ushbu ma'nbaalarga tayangan holda umumta'lim maktablari o'quvchilariga ingliz tilidan professional ta'lim berish hozirgi kunda dolzarb



masaladir. Hozirgi kunda milliy ta'lim tizimimizga innovasion ta'lim metodlari kirib kelishidan foydalangan holda, chet tilini o'rganish (ta'lim mazmuni) ning nazariy jihatdan o'rganish zarur hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda tillarga ixtisoslashmagan umumtalim maktablari o'quvchilariga chet tillarni o'rgatish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishdagi tadqiqotlar olib borilmoqda: o'quvchilarga chet tillarni o'rgatishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish; o'qitish mazmuni, ta'lim texnologiyalari, nazorat obyektivligini kuchaytirish, sinf va sinfdan tashqari mustaqil ta'limni tashkil qilish.

Umumta'lim maktablarida ingliz tili o'rgatishni maqsad va vazifalari hisobga olingan holda, ularni quyidagicha ajratish mumkin:

Chet tili –ingliz tili bo'yicha ixtisoslashgan sinflar, repetitorlik faoliyati.

Chet tili- ingliz tili bo'yicha ixtisoslashmagan sinflarning faoliyati.

Ammo, ingliz tilini o'qitishda har ikkala vazifadan foydalangan holda o'qitish faoliyatini olib borganda, o'qituvchi kasbiy kompetentlik sifatlariga tayangan holda ishni olib borish o'z natijasini ko'rsatadi.

Ilmiy izlanishlar natijasiga ko'ra ta'lim jarayonida kasbiy kompetentlik ta'lim tizimini boshqaruv jarayoni uchun zarurat sifatida qaralmoqda. Bu esa o'z navbatida boshqaruvchi tomonidan alohida bilim, ko'nikma va malakalarning o'ziningina emas, balki egallanishi lozim bo'lgan har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar, boshqaruvning ta'sirchan usul va vositalari, boshqaruvdagi muomila madaniyati va rahbarlik faoliyatiga doir ijodiy harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Ammo, biz ushbu masalaning yana bir jihati ya'ni kompetensiyaviy yondashuv asosida maktab o'quvchilariga chet (ingliz) tilini yanada oson va tez o'rgatish yo'llarining

nazariy va amaliy yo'llariga to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari deganda asosan zamonaviy fanda xodimlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini tahlil qilishda kompetensiya tushunchasiga muhim ahamiyat berilmoqda. Kompetensiya (lot. competo-erishyapman, munosibman, loyiqman) – u yoki bu sohadagi bilimlar tajriba.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar:

-kreativ, innovatsion, kommunikativ va boshqa kompetentlik:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda
- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Hozirgi kunda umumta'lim tizimida barcha fanlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o'rgatish va o'rganish faoliyati ommalashgan.

### **Kasbiy kompetensiya**

O'z ustida ishlash;

- Ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o'rnatish;
- O'quvchilar ehtiyojini anglay olishi;
- O'quvchilarda motivasiyani shakllantirish;
- AKTni bilishi;
- Ta'lim muhitiga yangilik kiritishi;
- O'z fanini mukammal bilishi;
- Xorijiy tillardan birini bilishi.

**Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari:**



1. O'z-o'zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;

2. O'zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;

3. O'zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish.

Kasbiy kompetensiyaga tayangan holda bitta mavzuda ish rarayoniniga misol keltirib o'tamiz.

Masalan; 5 – sinflar o'quvchilari uchun «Happy birthday» mavzusini o'tish

Jarayonini olib qaraylik;

Dastlab mavzuga doir «New words» yangi so'zlar bilan tanishib chiqamiz;

**Birinchi bosqichda;** yangi so'zlarni «definition» ya'ni tarifi boshqa so'zlar bilan izohlash orqali lug'atni tushuntirib, boyitib borishimiz va ushbu o'rgatish usullaridan foydalanishimiz mumkin. Bunda darsning sifati yani uning o'quvchilar qay darajada o'zlashtirib olayapti, qiziqishlari qanday, qanday qiziqitira oldik savollariga javob toppish maqsadida jarayonni davom ettiramiz.

**Ikkinchi bosqichda;** o'quvchilarning faolligini ta'minlash ya'ni yangi mavzudagi so'zlardan foydalanib gap tuzishlari, dialog shaklda muloqat qilishda sinab ko'rish amaliy ahamiyat kasb etadi. Ya'ni bunda mavzu doirasida orttirilgan so'z boyligimizni (New words) yangi so'zlar ustida ishlash metodikasining amaliy ko'rinishi sanaladi.

**Uchunchi bosqichda;** ushbu mavzu tushunarli va qiziqarli bo'lishi uchun dars davomida yangi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni va uni amaliyotda qo'llana olishni o'quvchilarga o'rgata olishni maqsad qilib olishimiz kerak. Ya'ni biz o'rgatishimiz mumkin – Listening - tinglab tushunish, reading - matnni o'qish orqali va exercise – mashqlar bilan mustahkamlab mavzu sifatini oshirishimiz mumkin.

Shuningdek yangi mavzu «Happy birthday» ni oid grammatik qoida asosida tushuntirib o'tish zarur. Bubu o'quvchining speaking - gapirishida hech qanday xatolarsiz haqiqiy «native speaker» lardek gapirishi uchun grammatika nazariy va

amaliy kasb etadi. «Happy birthday» tug'ilgan kun mavzusi asosida grammatik qoida «passive voice» ni ham tshuntirib o'tishimiz mumkin. Bu bizga «Happy birthday» mavzusi orqali ikkinchi bir grammatik mavzu bo'lgan «passive voice» ni samarali tushuntirishga nazariy va amaliy yordam bo'ladi. Ushbu mavzuimizni 6 ta bosqich asosida olib borishni maqsadga muvoffiq deb bildik.

1) New words-yangi so'zlar ustida ishlash.

2) Grammatik sturuktura bilan bog'lab o'tish.

3) Reading - mavzuga doir matn o'qitish

4) Listening audio tinglab tushunish orqali faolligini oshirish

5) Exercises mavzuga doir qiziqarli mashqlar bajarish

6) speaking- gapirish

Bundan tashqari dars jarayonida kichik metodikalar yordamida o'quvchilarni yanada faolashtirishimiz mumkin. Bu metodikaning nomini «Quiz time» ya'ni viktorina olib borishimiz mumkin. Bu metodikani «warm up» deb nomladik. Buning uchun o'quvchilarga, 15 sekund vaqt beriladi. Har bir o'quvchi daftariga o'qituvchi bergan sarlavhani «topic» ni yozadi. Masalan o'qituvchi Classroom deb yozadi.

O'quvchilar esa, har 12 sekund ichida sinfdagi har bir buyumning inglizcha nomini yozishi kera. Metodikaning oxirida o'qituvchi kimning sinfxonaga tegishli buyumlarning inglizcha nomi ko'pligini tekshirib chiqadi. Bu o'quvchilarda lug'at boyigining ortishiga yordam beradi.

Xulsa o'rnida shuni aytib o'tishimiz kerakki, ushbu jarayonda o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi yordamida o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatish faoliyati natijali olib borildi. Biz, ushbu nazariy va amaliy ma'lumotlarga asoslangan holda ish olib borishni ingliz tilini o'qitishga yordam beruvchi usul sifatida tavsiya qilamiz.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida/ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.
2. O'.Hoshimov. I.Yoqubov. Ingliz tili o'qitish metodikasi.- Toshkent-2003.
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)